



**OLIY O'QUV YURTI TALABALARDA KASBIY
MOTIVATSIYANI
RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATI**

Ayakulov

U.A.

Guliston

davlat pedagogika

Institute

o'qituvchisi

Kalit so'zlar: motivatsiyasi; kasbiy motivatsiya; motiv; ob'ektiv va sub'ektiv omillar;

Annotatsiya: Mazkur maqolada talabalarni kasbiy motivatsiyasini shakllantirish usullari, shaxs motivatsiyasini metodikalar yordamida aniqlash, shaxs motivatsiyasini rivojlantirish xususida fikr yuritilgan.

Mamlakatimizda bugungi kunda yoshlarga ko'rsatilayotgan e'tibor yuksak darajaga ko'tarilgan. Ayniqsa uzluksiz ta'lim tizimining muhim bo'g'ini hisoblangan oliy ta'lim muassasalarining moddiy – texnik bazasi rivojlantirilib, xalqaro standartlar darajasida ta'lim tizimini isloh qilish harakatlari jadallik bilan olib borilmoqda. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev 2020yil 24 – yanvardagi Oliy Majlisga murojaatnomasida oily talim tizimiga ham to'xtalib, “Oliy ta'limni rivojlantirish uchun o'tgan yili 19 ta yangi oliy o'quv yurti, jumladan, 9 ta nufuzli xorijiy universitetning filiali ochildi. Yetakchi xorijiy universitetlar bilan hamkorlikda 141 ta qo'shma ta'lim dasturi bo'yicha kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yildi. Oliy ta'lim



muassasalariga jami 146 ming 500 nafar yoki 2016 – yilga nisbatan 2 barobar ko'p talaba o'qishga qabul qilindi” deya ta'kidlagan edilar. [1] Albatta, mazkur islohotlar zahirida yoshlarning oliy ta'lim tizimida sifatli ta'lim olib, kelgusida vatanimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo'shadigan avlodni tarbiyalash maqsadi yotibdi. Shunday bo'lishiga qaramay, ba'zida talabalarning o'z tanlagan sohasiga birmuncha pastroq motivatsiya darajasida yondashayotganligining guvohi bo'lamiz. Bunday holatga bir qancha obyektiv va subyektiv omillar sabab bo'lishi mumkin. Masalan, talabaning o'zi istamasdan yo'nalish tanlaganligi, o'qishga qabul qilinganidan keyin esa ta'lim jarayonidan qoniqmasligi, o'zini baholash darajasi, u ta'lim olayotgan guruhdagi ijtimoiy muhit, talabaning fikri va intilishlari talabalar va o'qituvchilari tomonidan yetarlicha qabul qilinmasligi va boshqa sabablarni keltirish mumkin.

Mazkur muammolar bo'yicha uzoq va yaqin xorij mamlakatlarida bir qancha tadqiqotlar o'tkazilgan. Biroq bugungi kun ilm – fanida talabalar kasbiy motivatsiyasi bo'yicha yagona yondashuv yo'q deb baholanmoqda. Bir qator Rus psixologiyasi vakillari bo'lgan V.A.Kanaxov, L.V.Popova, G.I.Abramova va boshqa psixologlar talabalar motivatsiya sohasining o'ziga xosligi kasbiy ta'lim yo'nalishi bilan bog'liq degan xulosaga keldilar. G.I.Svetkova, G.S.Vaysman, T.V.Ivanova va boshqalar esa ta'lim jarayonida ta'lim – tarbiya va kasbiy motivlarni va umuman kasbiy ta'limning turli yo'nalishlari uchun xos bo'lgan motivatsion sohaning ahamiyatini tadqiq qilganlar. [2] Shunday ekan talabalar kasbiy motivatsiyasini o'rganishga bir xil yondashuvdan qarash biroz noto'g'ri bo'ladi. Talabalning kasbiy motivatsiya darajalarini eksperimental tadqiq qilishda bugungi kunda bir qator metodikalar mavjud. Xususan, T.Elersning “Shaxsning mag'lubiyatdan qochish motivatsiyasini aniqlash” va “Shaxsning muvofaqqiyatga erishish motivatsiyasini aniqlash” metodikalari, R.V.Ovcharovning “Kasb tanlash motivlari” metodikasi hamda J.Rotterning “Subyektiv lokal nazorat



xususiyatlarini o'rganish" so'rovnomalari shular jumlasidandir. Mazkur metodikalar yordamida talabalarning motivatsiya xususan kasbiy motivatsiya va unga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash mumkin bo'ladi.

Mashhur Rus olimi E.P.Ilin talabalardagi kasbiy motivatsiya muammolariga baho berar ekan, "Ushbu mavzuning dolzarbligi motivatsiya mavjudligi bilan bog'liq bo'lgan kelajakka tayyorgarlikni takomillashtirishning asosiy omillaridan biri bo'lib, zamonaviy ta'lim sharoitida mutaxassislar tayyorlashning asosiy shartidir. Aynan kasbiy motivatsiya shaxs va jamiyatning o'zaro aloqa nuqtalarini qamrab oladi va unda ta'lim jarayoniga alohida e'tibor beriladi" deb ta'kidlagan edi. [3]

Talabalik davrida kasbiy motivatsiyani shakllanish jarayoni ayni paytda muhim, ahamiyatli psixologik – pedagogik hodisa bo'lib, unda:

- Talabalarda salbiy kasbiy motivatsiyani shakllanishini oldini olishga qaratilgan chora – tadbirlarni ishlab chiqish va unga muntazam rioya qilish orqali talabalarda yuqori darajadagi kasbiy motivatsiyani shakllantirish mumkin.

- Ta'lim jarayonida bevosita pedagog – o'qituvchi tomonidan talabalar bilan individual ishlashni yanada kuchaytirish.

- An'anaviy dars mashg'ulotlarini biroz qisqartirib, noan'anaviy va zamonaviy dars o'tish usullarini yanada kengroq qo'llash.

- Talabaning fikri guruh uchun muhim ekanligiga uni ishonтира olish va ularning qiziqish, istak va xohishlarini inobatga olish.

- G'arbiy Yevropa, Amerika va Osiyoning rivojlangan davlatlari ta'lim tizimini o'rganib chiqib, milliy xususiyatlarimizdan kelib chiqqan holda, mamlakatimiz ta'lim tizimiga bosqichma – bosqich tadbiriq qilish jarayonini



yanada jadallashtirish orqali talabalarning kasbiy motivatsiya xususiyatlarini yanada oshirish imkoniyatlari paydo bo'lishi mumkin.

Darhaqiqat, talabalarning kasbiy motivatsion sohasini rivojlantirishda asosiy o'rinda ta'lim va tarbiya tushunchalari yotadi. O'qituvchilar tomonidan ta'lim mashg'ulotlari qanchalik sifatli va yangicha yondashuvlar asosida olib borilsa, talabalarning qiziqish va fikrlaridan kelib chiqib, mashg'ulotlar tashkillashtirilsa, albatta foydadan holi bo'lmaydi. Negaki, talaba kelgusi faoliyatida foydalanadigan zaruriy, tayanch tushuncha va bilimlarni oliy ta'lim muassasasida oladi. Shunday ekan, talim jarayonida talabalarning bilimlarni o'zlashtirishlarida asosiy omil ta'lim jarayonidagi o'ziga xos innovatsion usullar hisoblanadi. Bu albatta, oliy o'quv yurti talabalarining kasbiy motivatsiyasini oshirishda yaxshi samara berishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020 yil 24 yanvardagi Oliy Majlisga murojaatnomasi. "Tasvir" nashriyot uyi. Toshkent 2020.
2. Журнал научных статей Здоровье и в XXI веке образование. (753-754 с)
3. Ильин Е.П. Мотивация и мотивы.- СПб: Питер 2000.